

UDK:811.512.133'373'21:37.013

ORCID: 0009-0006-9295-6545

MIZDAKXON NOMI KELIB CHIQISHI VA BU ZIYORATGOHNING BUGUNGI
KUNDA YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Rajabova Nilufar Egamberganovna

Mazlumxon yodgorligi X – XIX asrlarga oid yodnomalarda *Mizdakxon* nomi bilan tilga olinadi. Masalan, shu nisbali shoir “Muzakkiri ahbob”da zikr etilgan: Kamoliddin Mahmud *Mizdakxoniy* — xorazmlnk tasavvuf olimi (XIV asrda yashagan)⁹¹. Keyinchalik esa *Mizdehqon* shaklini olgan. Jumladan, “Firdavs ul-iqbol”da Eltuzarxonning 1219-yil 9-zulqa'da //1805-yil 9-fevral kuni Mizdehqon (Mazlumxon)ga borib Sham'un nabi maqbarasini ziyyarat qilgani aytildi: “Xoni mag‘fur ul kun shikor tariqasi bila Xo‘jaeli navohisin sayr qildi. Ertang yana qushlab, *Mizdehqonda Sham'un nabi alayhissalomning* ziyyoratig‘a musharraf bo‘lub, hazrat qutbu-l-aqtob, siyodatmaob sayyid Tursunxo‘ja eshong‘akim, ul janobning mutavallisi erdi, nazr bahonasi bila ganjrezlik qildi”⁹².

Munis bu ziyyaratgoh haqida qisqacha bayon ham beradi: “Hazrati *Sham'un alayh issalomning* maqbarai mutabarrikasining doiyai ziyyorati uchun kim, Xo‘jaeli navohasida *Mizdahkon* qirining ustida voqe'dur. Ba'zi qisasda ul hazratni havoriyundin tutubdilar va ba'zi tavorixda *Samsun* Obid bitibdurlar⁹³” yoki “Juma kuni *Sham'un nabiykim*, ba'zi tarax ahli alarni Shamun obid bitibdurlar va Mizdakxonda madfundur, alarning maqbarasin ziyyarat qilib va hazrati siyodatmaob qutbu-l-aqtob Tursunxo‘jag‘a xil'ati garonmoya bila bir qabza zar nazr berib va hazrat murshidu-s- solikin Gadoyxo‘ja eshon va Abdixo‘ja va Shomiddinxo‘ja va g‘oyrhumi^g‘a dog‘i nazrlar berib, duolaridin maxzuz va bahramand bo‘ldi⁹⁴. “Firdasu-l-iqbol”ning quyidagi parchasidan Sham'un nabi qabri yaqinida dafn qilish mayyitga bo‘lgan ehtirom ifodalaridan biri sanalgani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham Muhammad Rahimxon o‘zining xos devonasi (aqli zoyil bo‘lsa ham, xonga boshqalar ayta olmagan haqiqatni aytib turadigan devonasifat, majzub darvish)ni Sham'un nabi javoriga dafn qilishni buyuradi: “Nazarbekning navkarlaridin va qaroqalpoqiyadin bir kishi va *Mustaqim devona no*‘g‘oykim, hazratning devonalaridin a’jubayi zamon va nodirayi davron erdi, og‘ir jarohat ko‘tardilar. Ammo devona bila qaroqalpoq so‘ngg‘i kun vafot topib, devonani

⁹¹ Нисорий Ҳасанхожа. Музаккири ахбоб (Дўстлар ёдномаси). Таржима ҳамда сўз боши ва пзоҳлар муаллифи Исломил Бекжон. – Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги Ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 302.

⁹² Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kopenhagen–Köln, 1988. – С. 435..

⁹³ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kopenhagen–Köln, 1988. – С. 384.

⁹⁴ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kopenhagen–Köln, 1988. – С. 433

hazratning mujibi ishorati bila Xo‘jaelig‘a eltib, Mazdehqonda *Sham'un obidning javorida dafn qildilar*⁹⁵.

Afsonaga ko‘ra, qabriston hududida dunyoning oxirigacha sanalgan “Dunyo soati” yoki “Qiyomat soati” bor. Har yili “soat” devoridan g‘isht tushadi va afsonada aytilganidek, oxirgi g‘isht tushganda, qiyomat sodir bo‘ladi. Shuning uchun, bu yerga kelgan ziyyoratchilar ehtiyotkorlik bilan toshlarni yig‘ib, ularni yaqin atrofga yig‘ib, najot uchun duo o‘qiydilar⁹⁶.

Mizdaxkonning, deyarli barcha madaniy ob’ektlari “yetti” raqami bilan bog‘liq. Yetti gumbazni Shamuna Nabining yetti go‘zal qizi sharafiga qurilgan, deya hisoblashadi. Xalifa Yerejep yodgorligining ostida rivoyatlarga ko‘ra, Payg‘ambarimizning yetti sahobiylari dafn qilingan. Bundan tashqari, “Erejep” (“Radjab”) ism bilan bir vaqtning o‘zida arab solnomasidagi yettinchi oyning nomi hamdir. Sag‘ana ham “etti sahoba” nomi bilan mashhur. “Jetti qari” maqbarasi Qur’onning yetti hatmchisiga tegishli. Shuning uchun ham ziyyarat qiluvchilar yetti g‘ishtdan iborat ustuncha hosil qilishadi. Yetti g‘ishtdan iborat ustunni Xalifa Yerejep inshooti bilan ham bog‘lashadi. Aytishlaricha, yilda bir marotaba devordan bir donadan g‘isht tushar ekan. Devordagi so‘nggi g‘isht tushgan onda Yerdagi hayot ham o‘z yakuniga yetar ekan. Ziyyoratchilar g‘ishtdan ustun qilishar ekan, bino bardavomligini yetti yilga cho‘zishar ekan⁹⁷.

Akademik Jumanazar Bazarbaevning ta’kidlashicha, ushbu “Mizdakxan” atamasi aslida zardushtiylar xudosi Mazdahning nomi bilan bog‘liq. Lekin, uni biz bilmaymiz. Chunki, o‘tgan asr boshlarida rus olimlari o‘zgartirib yuborgan. “Mizdakxan” nomini ilk bor fanga kiritgan Bartold ekan. U sharqshunoslik fanlarining taniqli olimi sifatida hech qanday dalilsiz shu nomni e’lon qilgan. Buni 1928-1929 yillarda birinchi bo‘lib yodgorlikni tadqiq qilgan A.Yu.Yakubovskiy va undan keyin boshqa olimlar ham qabul qilgan. Endi Mazdahning nomi nima uchun Mizdakxanga aylanib ketgan, shunga e’tibor beraylik. Buni tushunish uchun biz avvalambor zardushtiylikning bosh xudosi Axura Mazdah so‘ziga diqqat qarataylik. “Axura” so‘zi paxleviy tilida “sardor”, “janob” ma’nolarini anglatar ekan. “Avesto” kitobini paxleviy tilidan tarjima qilganlar uni “xudo” deb olib, unga “Mazdah” so‘zini qo‘shtan va “Xudo Mazda”, ya’ni Axura Mazdah deb keltirgan. “Avesto”ning asl nusxasida uning yozilishi “Axrux Mazda” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, o‘rta asr arab-fors yozma manbalarida ham Mazdahqan deb yozilgan. Masalan, Ibn Ruste ham, Istahr ham, Mandish ham, fors tilidagi “Huduz al-amal” nomli asarda ham qal’aning nomi Mizdakxan emas, balki, Mazdahqan deb berilgan.

⁹⁵ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbali: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. – C 782.

⁹⁶ <https://uzbekistan.travel/uz/o/qadimgi-mizdakxon-dahmasi/>

⁹⁷ <https://meros.uz/object/mazdohqon-majmuasi-gor-qaa-xujayli>



CANADA

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference



CANADA

Shuningdek, mashhur rus arxeologi S.P.Tolstov Janubiy Orol bo‘ylarida zardusht davrlariga oid bo‘lgan aksariyat qishloq va shaharlarning, suv to‘g‘onlarining nomlari Mazdah bilan bog‘lik, deb ko‘rsatadi⁹⁸.

Hulosa qilib aytganda, din bilan bog‘liq bo‘lgan ziyoratlar, ularning tarixini o‘rganish xalqning moddiy va ma’naviy boyligini oshirishda hamda ushbu maskanlar insoniyat madaniyatining ajralmas bo‘lagiga aylanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

⁹⁸ <https://kknews.uz/uz/58915.html>